



G'AFUR G'ULOM KURZIN NIGOHIDA

Ilhomjonov Lutfulla Sultanovich,
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afur G'ulom uy-muzeyi ilmiy xodimi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19604227>

Annotatsiya. Maqolada G'afur G'ulom uy-muzeyida saqlanayotgan rangtasvir asarlari, xususan, mashhur rus rassomi Mixail Kurzin tomonidan chizilgan G'afur G'ulom portreti haqida so'z boradi. Mixail Kurzinning O'zbekistonda yashab, ijod etgani va o'zbek xalqining urf-odatlarini, qadriyatlarini hamda turmush tarzini, mashhur kishilarning portret suratlarini o'z rangtasvir asarlari orqali to'laqonli o'ziga xos uslubda ifoda etganligi haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, rassomning ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan murakkab va ziddiyatli hayot yo'li ham asosli etib yoritilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Moskva, M. Kurzin, M. Volkov, G'afur G'ulom, rangtasvir, portret, rassom, ranglar, san'at, akvarel, manzara, mo'yqalam, muzey.

Annotation. The article discusses the paintings preserved in the house-museum of Gafur Ghulam, particularly the portrait of Gafur Ghulam created by the famous Russian artist Mikhail Kurzin. It provides information about Kurzin's life and creative work in Uzbekistan, highlighting how he vividly and uniquely depicted the traditions, values, and lifestyle of the Uzbek people, as well as portraits of prominent figures, through his paintings. The article also thoroughly explores the artist's complex and controversial life path, which remains little known to the wider public.

Keywords: Uzbekistan, Moscow, M. Kurzin, M. Volkov, Gafur Ghulam, painting, portrait, artist, colors, art, watercolor, landscape, brush, museum.

Toshkent shahrining Arpapoya ko'chasida joylashgan G'afur G'ulom uy-muzeyi 1983 yilda ya'ni shoirning 80 yillik yubileyi munosabati bilan, 1944-1966 yillarda yashab ijod etgan uyida tashkil etilgan.

O'zbekiston xalq shoiri, akademik G'afur G'ulom o'zining mashhur bo'lgan «Bizning uyga qo'nib o'ting, do'stlarim...» she'rida uy manzilini quyidagi misralarda mohirona tasvirlagan:

*Olam bilar, Furqat ko'cha yo'li bor,
Beruniy maydoni, Yoshlar ko'li bor,
Muqimiy binosin xuddi so'li bor,
Ko'rsatuvchi militsioner qo'li bor,
Bizning uyga qo'nib o'tinglar, do'stlarim! [1, B.114]*

Hozirgi kunga kelib uy-muzeyda G'afur G'ulomga taalluqli bo'lgan 11000 dan ortiq ashyolar: shaxsiy buyumlar, kitoblar, gzetalar, jurnallar, hatlar, turli hujjatlar, maishiy buyumlar, qo'lyozmalar, orden va medallar, grafik hamda moybuyoq asarlar, asarlariga ishlangan illustratsiyalar borinki shoir shaxsiyati bilan bog'liq barcha ashyolar saqlanadi. XX asrning ko'plab mashhur rassomlari G'afur G'ulom siymosini rangtasvirda ifoda etishgan, xususan Mixail Kurzin, Aleksandr Mochalov, Yan Kravchenko, Abdulhaq Abdullayev, Aleksandr Siglensev, O'zbekiston xalq rassomlari Fazilat Saydaliyeva va Sobir Raxmetovning ishlari muzey



ekspozitsiyasidan joy olgan. Ushbu san'at asarlari orasida mashhur rus rassomi Mixail Kurzinning ishi alohida diqqatga sazovorligi bilan ajralib turadi. G'afur G'ulom siymosini va ruhiyatini to'laqonli o'ziga xos uslubda aks ettirgan rassom Mixail Kurzin bu portretni 1935 yilda chizgan. Asar rassomning yuqori badiiy mahorati va o'ziga xos uslubiy yutuqlarini yaqqol namoyon etadi. Portretda qo'llanilgan qalin bo'yoq (impasto) uslubi rassomning ekspressiv yondashuvini ko'rsatadi. Yuzdagi qattiq shtrixlar va faktura ichki kechinmalarni ochib berishga xizmat qiladi. Bu uslub ekspressionizm ta'sirini ham eslatadi.

Portretda G'afur G'ulomning ko'zlari va yuz ifodasi orqali chuqur o'ychanlik, hayot tajribasi va ijodiy izlanish aks etgan. Rassom tashqi o'xshashlikdan ko'ra, ichki dunyoni berishga ko'proq e'tibor qaratgan. Asarda qora, jigarrang va qizg'ish tonlar ustun. Bu palitra portretga dramatik va biroz og'ir ruhiy kayfiyat beradi. Yorug'lik va soya kontrasti yuzning ayrim qismlarini alohida ajratib ko'rsatgan. Fon deyarli neytral va abstrakt bo'lib, diqqat to'liq shaxsga qaratilgan. Bu rassomning kompozitsiyani minimal, lekin ta'sirchan qilish mahoratini ko'rsatadi. Ayniqsa, shoir labiga qistirilgan papirosning uch qismi qizil rang ila chizilganligi asarning tabiiylik xususiyatini yanada oshirish bilan bir qatorda ijodkor ruhiyatini to'laqonli ifodalashga xizmat qilgan.

Bu asar Mixail Kurzinning portret janridagi yetukligini namoyon etadi. U G'afur G'ulom siymosida nafaqat insonni, balki uning ichki dunyosini, fikrlash tarzini va ijodiy ruhini jonli qilib ko'rsata olgan.

Mixail Ivanovich Kurzin 1888-yilda Altay o'lkasining Barnaul shahrida tug'ilgan. Hayotining birinchi yarmini Rossiyada, ikkinchi yarmini esa O'zbekistonda o'tkazgan. U 69 yil nihoyatda notinch va ziddiyatli davrda yashadi — bu yillar qiyinchiliklar, kurashlar va g'alabalar bilan to'la bo'lgan. Hayotining so'nggi uch yilida (rassom 1957-yilda vafot etgan), allaqachon kasal bo'lishiga qaramay, Kurzin avvalgi kabi charchoq bilmas mehnat va yoshlik ruhi bilan ishlashda davom etdi. Bu hayotiy quvvat va ruhiy bardoshlik uning dastlabki asarlaridayoq yaqqol seziladi. 1904-yildan boshlab Kurzin Qozon san'at maktabida tahsil oldi. 1907-yildan esa Moskvada tasviriy san'at, haykaltaroshlik va me'morchilik maktabida o'qishni davom ettirdi. Aynan shu yerda uning ijodiy yo'nalishi shakllana boshladi va M. M. Cheremnih kabi yorqin rassomlarning ijodi bilan tanishdi. 1912-yilda esa yosh rassom Peterburgga borib, u yerda teatr va kino dekoratsiyalari ustaxonalari bilan bog'liq ishlar ustida ishladi hamda Moskvadagi san'at ko'rgazmalarida ishtirok etdi. Mixail Kurzin ko'p yillar davomida Moskvaning oliy badiiy-texnik ustaxonalarida (VXUTEMAS) rangtasvir va chizmachilikdan dars berdi. Keyinchalik u Osiyo mamlakatlari bo'yicha ishlaydigan rassomlar brigadasiga rahbarlik qildi. 1920-yillarning boshida Kurzin xalq maorifi komissarligi topshirig'i bilan Sibir va Osiyoning turli hududlariga safarlarga chiqdi. Bu safarlar davomida u turli xalqlarning hayoti va turmush tarzini kuzatib, ko'plab ekizlar va portretlar yaratdi. Shu davrda rassom Hindiston, Xitoy va boshqa sharq mamlakatlari bilan



bog‘liq bir qator asarlar ustida ishladi. Ayniqsa, Pekin, Kanton va boshqa shaharlar hayoti bilan bog‘liq kuzatuvlari uning ijodida muhim o‘rin egalladi.

Umuman olganda, Kurzinning Pekin turkumidagi asarlari o‘ziga xos va juda qimmatli hisoblanadi; ular rassomning ijodida muhim o‘rin egallaydi. Shu davrda Kurzin bilan Xitoyda yana bir mashhur san‘atkor — V. Suxanov ham yashagan. O‘sha paytda Yevropa san‘at jurnallarida mashhur rassom Aleksandr Yakovlev haqida ham ko‘p yozilgan edi. U Amerika tomon safarga chiqishga tayyorgarlik ko‘rayotganda Kurzin bilan uchrashadi. Yakovlev undan o‘zi bilan birga borishni taklif qiladi. Kurzin esa shunday javob beradi: “Yo‘q, mening yo‘lim — vatanimga qaytish. U yerda onam, Mayakovskiy bor. Xitoyda esa men yana bir oz sayr qilib, keyin ortga qaytaman”. [2, B.8] Shundan so‘ng u qaytishga qaror qiladi.

1923-yildan boshlab Kurzin doimiy ravishda O‘zbekistonda yashay boshlaydi. Rang-barang, quyoshga to‘la va rassom uchun ilhomga boy bu o‘lka uni o‘ziga mahliyo etadi. O‘sha paytda ko‘plab boshqa rus rassomlari ham bu yerga kelgan edi. Biroq P. Benkovdan farqli ravishda Kurzin O‘zbekistonni asosan ranglarning boyligi, yorug‘lik va quyosh nuri orqali tasvirladi.

A. Volkov va O. Tatevosyan singari rassomlar ham ranglar olami, ritm va sharqona hayotning o‘ziga xosligini tasvirlashga intilgan edilar. «Volkov musiqiy ohang va xalq oddiy san‘ati dunyosiga sho‘ng‘idi. Kurzin ravshan ranglarga e‘tiborini qaratdi. Korovay o‘z lirizmini so‘nggi davr fransuz rassomchiligi usullari bilan qo‘shib yubordi». [3, B.10]

Shuningdek, Kurzin dastlab 20-30 yillarda o‘zbek xalqining turmush tarzini ifoda etuvchi ko‘plab rangtasvir asarlarini yaratadi. Ayniqsa rassomning “Kolxozchilar raqsi”, “O‘g‘rilar”, “Rais”, “Temirchi”, “Choyxona”, “Eski Toshkent”, “Toshkent atrofi”, “Mehmondorchilikda”, “Buxoroda Jiyda gulladi”, “Non, piyola va atir gular”, “Ikki oila”, “Selmarsh oshxonasi” kabi asarlari bunga misol bo‘la oladi. Bu asarlar orqali Kurzin o‘zbek san‘at madaniyatiga muhim hissa qo‘shgan.

Mixail Kurzin ijodi aslida klassik realizmga xos xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, uning asarlarida yangi badiiy ifoda shakllari ham paydo bo‘ladi. Shu sababli uning asarlari bir vaqtning o‘zida ham an‘anaviy, ham yangicha uslubni o‘zida mujassam etadi. U asrlar davomida shakllangan qoloq ijtimoiy qarashlar, kishilarni kamsitish, zulm va ekspluatatsiya kabi hodisalarga qarshi keskin tanqidiy munosabat bildiradi. Bu orqali u ijtimoiy hayotdagi turli ziddiyatlarni, jamiyatning rivojlanish yo‘lidagi muammolarni ko‘rsatishga harakat qiladi. Rassom ijtimoiy hayotda faol qatnashib, ko‘plab vazifalarni bajaradi. U turli janrlarda ishlaydi: teatr dekoratsiyalarini yaratadi, portretlar chizadi, oddiy kundalik sahnalarni tasvirlaydi, shuningdek gazeta va jurnallar uchun plakatlar ham tayyorlaydi.

Kurzin Toshkentda tashkil etilgan “Yangi Sharq ustalari” san‘at uyushmasining tashkilotchilaridan biri bo‘ladi hamda O‘zbekiston Rassomlar uyushmasining faoliyatida ham qatnashadi. 1920-yillarda Moskva va boshqa shaharlarda faoliyat yuritgan san‘at tashkilotlari bilan ham hamkorlik qiladi.



1940-yillar va 1950-yillar boshlarida repressiya qilinganligi sababli Kurzin tizimli ravishda ishlash imkoniga ega bo'lmadi. Biroq og'ir sharoitlarga qaramay, uning iste'dodi qadrlanib, u san'at sohasida ishlash imkoniyatini topadi. Lagerda u sahna bezaklarini yaratadi, portretlar va manzaralar chizadi.

Hayotining so'nggi uch yilida (1955–1957) Kurzin nihoyatda katta ijodiy kuch bilan ishlaydi. Shu davrda u yuqori darajadagi “O'zbek natyurmortlari” turkumini yaratadi, shuningdek bir nechta “Sibir natyurmortlari” ni ham ishlaydi. Bu asarlarda rassomning jasur va ishonchli mahorati, rangni chuqur his etishi hamda insoniy xarakterlarni chuqur anglay olishi yaqqol seziladi. Boshqa rasmlar fonida bu portret oddiy hisobot uchun chizilgan rasm emas, balki har qanday san'at muzeyi faxrlanadigan darajadagi qimmatli asar sifatida namoyon bo'lib turardi. U tasodifan juda oddiy muhitga tushib qolgan edi.

Yaxshiyamki, M. Kurzinning 1933-yilga oid eng yaxshi asarlaridan biri — “Kolxozchilarning raqsi” saqlanib qolgan. Bu ajoyib asar tomoshabinni o'zbek kolxozchilari obrazlarining yorqin galereyasi bilan jalb qiladi. Zamondoshlari yozganidek, u rassomning jasoratli va virtuoz “alla prima” texnikasida, nihoyatda erkin hamda tabiiy uslubda ishlangan.

Mazkur asar o'zining original, simmetrik kompozitsiyasi, yorqin va hayotbaxsh ranglari bilan darhol ko'zga tashlanadi. Ranglar bir-birini to'ldirib turadigan kontrastlar orqali qurilgan bo'lib, asarning g'oyasi va syujeti bilan mukammal uyg'unlashadi.

Tomoshabinga orqa tomoni bilan tasvirlangan yosh kolxozchining zumrad-yashil ipak choponi uning qarshisida raqs tushayotgan qizning pushti ko'ylagi va yorqin qizil shiori bilan qarama-qarshi qo'yilgan. Jigarrang, qizg'ish va binafsha ranglardagi kiyimlar kompozitsiya markazidagi yorqin figuralar uchun fon yaratadi. Ayollar, erkaklar va bolalarning quyoshda qoraygan, yorug'likda yaltirab turgan yuzlari kiyimlarning jigarrang-binafsha gammasi bilan uyg'unlashadi. Keksalarning bronza rangli yuzlari esa ularning oppoq salla va bosh kiyimlari bilan kontrast hosil qiladi.

Hayotining so'nggi yillarida Kurzin ko'plab qimmatli asarlar yaratdi, ayniqsa portret va natyurmortlar. Ularning ba'zilar rassom iste'dodining yetukligini va ijodiy kamolotini yaqqol namoyish etadi. Masalan, “Non, piyola va atirgullar” natyurmorti oddiy buyumlar orqali kuchli poetik kayfiyat yaratadi: o'zbek noni, choy piyolasi va uchta atirgul kompozitsiyasi klassik natyurmort poeziyasini eslatadi.

Mixail Kurzina haqida uning zamondoshi, O'zbekiston xalq rassomi V. I. Ufimsev shunday degan: «Kurzina — bu hayot, mehnat va yangi yechimlarni tinimsiz izlash demakdir. U oxirgi daqiqagacha yana nimadir yangi va muhim narsa yaratishiga ishongan. Kurzina haqida yana ko'plab kitoblar yozish mumkin». [4, B-25].

Shubhasiz, Kurzina ijodi san'atshunoslar, rassomlar va madaniyat, san'at ixlosmandlari tomonidan yuqori baholanadi. Uning asarlarida faol hayotiy pozitsiya

“SIRLI RANGLARDAGI MILLIY MEROS” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIY MEROS
AGENTLIGI

va dunyoni yuqori darajadagi badiiy talqin qilish uchun muhim namuna topish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar. «Sharq» nashriyoti matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent-2024.
2. R. Taktash. Mixail Kurzin. Na estonskom yazike. Izdatelstvo «Kunst». Tallin-1971.
3. Usto Mumin. Mastera iskusstv Uzbekistana. Izdatelstvo literaturi i iskusstva imeni Gafura Gulyama. Tashkent-1982.
4. R. Taktash. Mixail Kurzin. Na estonskom yazike. Izdatelstvo «Kunst». Tallin-1971.

